



QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

(dastlabki ma'lumotlar)


2018 yil yanvar-dekabr

RAQAMLAR


- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **27,1 trln. so'm**, o'sish sur'ati **94,4 %**
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati **94,2 %** ni tashkil qildi.
- shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari – **85,4 %**
- chorvachilik mahsulotlari – **109,7 %**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 27 091,2 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 94,4 %ni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 26 352,8 mlrd.so'mni (94,1 %), o'rmon xo'jaligi – 694,7 mlrd.so'mni (102,6 %), baliq xo'jaligi – 43,7 mlrd.so'mni (115,6 %) tashkil qildi

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (foizda)




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Urgut tumanining ulushi 11,8 %ni tashkil etdi va tumanlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, Bulung'ur va Tayloq tumanlari mos ravishda 11,6 % va 9,4 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Kattaqo'rg'on shahri (0,3 %), Samarqand shahri (0,8 %) va Nurobod (2,3 %) tumanida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 94,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 85,4 %ni, chorvachilik mahsulotlari – 109,7 % ni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi (foizda)



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 60,7 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 36,1 % – fermer xo'jaliklariga, 3,2 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida (foizda)



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 15 322,5 mlrd. so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 85,4 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 58,4 %ni tashkil qildi.




2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da
Don ekinlari	610,6	82,1	470,0	83,5	133,3	76,5	7,3	108,3
Kartoshka	553,6	93,7	75,8	56,5	477,2	104,7	0,7	90,0
Sabzavotlar	1 414,8	79,2	588,3	58,0	812,1	107,3	14,4	100,7
Poliz	100,1	89,7	25,7	59,1	74,1	109,9	0,3	42,9
Meva va rezavorlar	337,7	87,7	132,7	76,6	179,9	95,0	25,1	112,3
Uzum	562,7	91,2	340,9	89,7	214,3	93,4	7,4	101,0

Hosilni yig'ib olish. 2018 yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda 610,6 ming tonna (82,1 %) don ekinlari ishlab chiqarildi, 553,6 ming tonna (93,7 %) kartoshka kavlab olindi, 1414,8 ming tonna (79,2 %) sabzavotlar, 100,1 ming tonna (89,7 %) oziqbop poliz, 337,7 ming tonna (87,7 %) mevalar va rezavorlar, 562,7 ming tonna (91,2 %) uzum yig'ib olindi.


Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi (foizda)




Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiy hajmining 86,2 %, sabzavotlarning 57,4 %, polizning 74,1 %, mevalar va rezavorlarning 53,3 %, uzumning 38,1 % ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 77,0 % ular hissasiga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Don ekinlari (ming t)




Kartoshka (ming t)




Sabzavotlar (ming t)




Poliz (ming t)



Mevalar va rezavorlar (ming t)



Uzum (ming t)



Chorvachilik




2018 yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 10 915,8 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 109,7 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 41,6 %ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 290,9 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 10,7 %ga ko'p), 1 272,9 ming tonna sut (2,6 %ga), 1 535,2 mln.dona tuxum (28,1 %ga), 4,1 ming tonna jun (88,6 %ga) ishlab chiqarildi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %
Go'sht tirik vaznda, ming t	290,9	110,7	34,9	2,1M	244,9	104,4	11,0	96,4
Sut, ming t	1 272,9	102,6	79,6	137,2	1 190,5	100,7	2,8	2,5M
Tuxum, mln. dona.	1 535,2	128,1	444,5	189,6	618,7	103,3	472,0	129,5
Jun, ming t	4,1	88,6	0,2	82,9	3,7	87,7	0,2	124,2
Qorako'l, ming dona.	65,7	76,1	2,1	68,2	43,5	61,8	20,2	154,9
Pilla, ming t	2,2	112,9	2,2	113,6	-	-	-	-

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi (foizda)




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 83,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 93,5 %, tuxumning 40,3 %, junning 90,4 %, qorako'l terining 66,2 % ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Go'sht (ming t)




Sut (ming t)



Tuxum (mln. dona)



Pilla (tonna)



Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 554,1 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 682,8 ming boshga, qo'y va echkilar – 2 369,1 ming boshga, parrandalar – 13 045,4 ming boshga yetdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 78,0 ming boshga (5,3 %ga), shu jumladan sigirlar – 54,1 ming boshga (8,6 %ga), qo'y va echkilar – 86,3 ming boshga (3,8 %ga), parrandalar – 1 886,4 ming boshga (16,9 %ga) ko'paydi.

2019 yilning 1 yanvar holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %
Yirik shoxli qoramollar	1554,1	105,3	73,5	108,8	1 470,5	105,2	10,1	96,2
<i>shu jumladan</i>								
sigirlar	682,8	108,6	27,7	105,2	654,1	108,8	1,0	72,0
Qo'y va echkilar	2369,1	103,8	129,6	101,4	2 143,5	105,2	96,1	81,5
Parrandalar	13 045,4	116,9	3 774,6	142,7	5 543,8	117,3	3 727,0	98,4

2019 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,7 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,5 % fermer xo'jaliklariga, 90,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 4,1 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 28,9 % fermer xo'jaliklariga, 42,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 28,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi


Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha ulushi (foizda)




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2019 yilning 1 yanvar holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parandalar bosh soni


Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)




shundan, sigirlar (ming bosh)



Qo'y va echkilar (ming bosh)



Parrandalar (ming bosh)



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

- 71-230-85-30
- 71-230-85-31